

EVRIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING MAZMUNI VA TUZILMASI.

Sabirov Zarifboy Raximbergan o'g'li

Ma'mun University

sabirov.z@mamunedu.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22798217>

Annotatsiya: Ushbu maqolada evristik yondashuv asosida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasining mazmuni va tuzilmasi yoritilgan. Zamonaviy ta'limda o'quvchining tayyor bilimlarni o'zlashtirishi bilan bir qatorda, muammoni mustaqil anglash, savol qo'yish, faraz ilgari surish, ma'lumot izlash, dalillarni tahlil qilish va o'z xulosasini asoslash qobiliyatlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan evristik yondashuv o'quvchining tabiiy qiziquvchanligi va bilishga bo'lgan ehtiyojini ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi omiliga aylantirish imkonini beradi. Tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasining mazmuni muammoli vaziyat, evristik savol, faraz, mustaqil izlanish, tekshirish, tahlil va refleksiya kabi o'zaro bog'liq faoliyatlar asosida belgilanadi.

Kalit so'zlar: evristik yondashuv, tadqiqotchilik ko'nikmalari, umumiy o'rta ta'lim, evristik topshiriq, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyat.

Аннотация: В данной статье излагаются содержание и структура методики развития исследовательских навыков учащихся, основанной на эвристическом подходе. В современном образовании наряду с усвоением готовых знаний особое внимание уделяется способностям учащихся самостоятельно выявлять проблемы, ставить вопросы, формулировать гипотезы, искать информацию, анализировать доказательства и обосновывать собственные выводы. С этой точки зрения эвристический подход позволяет превратить естественное любопытство и потребность

учащегося в знаниях в движущую силу образовательного процесса. Содержание методики развития исследовательских навыков определяется рядом взаимосвязанных действий, таких как проблемная ситуация, эвристический вопрос, гипотеза, самостоятельное исследование, проверка, анализ и рефлексия.

Ключевые слова: эвристический подход, исследовательские навыки, общее среднее образование, эвристическая задача, самостоятельное мышление, проблемная ситуация.

Abstract: This article sheds light on the content and structure of a methodology for developing students' research skills based on a heuristic approach. In modern education, alongside students' acquisition of ready-made knowledge, special attention is also paid to their abilities to independently identify problems, ask questions, formulate hypotheses, seek information, analyze evidence, and substantiate their own conclusions. From this perspective, a heuristic approach makes it possible to turn a student's natural curiosity and need to know into a driving force in the educational process. The content of the methodology for developing research skills is defined by interconnected activities such as a problem situation, a heuristic question, a hypothesis, independent exploration, verification, analysis, and reflection.

Keywords: heuristic approach, research skills, general secondary education, heuristic task, independent thinking, problem situation,

Evristik yondashuv asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi o'quvchini mustaqil bilish natijasini hosil qilishga olib o'tishga yo'naltiriladi. Bunda ta'lim jarayonini izlanishga ehtiyoj tug'diradigan muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilib, o'quvchining fikrlash yo'nalishini faollashtirish vazifasiga echim izlanadi. Evristik savollar, ochiq echimli topshiriqlar, muqobil vaziyatlar, kuzatish va kichik tadqiqotlar orqali o'quvchi ma'lumotlarni mustaqil izlash hamda ularning ahamiyatini baholashga o'rganadi. Metodik jarayonda vazifalarning murakkabligi bosqichma-bosqich oshirilib, pedagogik ko'mak hajmi

o'quvchining mustaqilligiga muvofiq kamaytirib boriladi. Natijada o'qituvchi faoliyati izlanish muhitini loyihalash va intellektual faoliyatni maqsadli yo'naltirish xususiyatiga ega bo'ladi.

Mazkur metodikaning o'ziga xosligi tadqiqot natijasidan tashqari unga erishish usuliga ham pedagogik ahamiyat berilishida namoyon bo'ladi. Shu sababli o'quvchining manbalar bilan ishlashi, turli qarashlarni qiyosiy baholashi, maqbul vositalarni tanlashi va olingan natijaning ishonchliligini asoslashi ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Bunda bir xil algoritmnini barcha vaziyatlarga tatbiq etishdan ko'ra vazifaning xususiyatiga muvofiq harakat usulini tanlashga ustuvorlik beriladi. Xato yoki kutilmagan natija keyingi harakatni aniqlashtirishga xizmat qiladigan axborot sifatida tahlil qilinadi. O'zini o'zi baholash va bajarilgan ishni qayta tahlil qilish orqali o'quvchi o'z faoliyatini ongli boshqarish tajribasini egallaydi. Shu tariqa evristik yondashuv tadqiqotchilik ko'nikmalarini yangi vaziyatda mustaqil yo'l topish va ilmiy asoslangan natijaga erishish imkonini beradigan yaxlit faoliyat usuli sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki evristik yondashuv o'quvchilarni intellektual rivojlantirish jarayonining sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qilib, ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. **Tadqiqot** – 1. Tadqiq ishi, tekshirish, o'rganish ishi. 2. Ilmiy tekshirish ishining natijasi. Tadqiqot bilan mashg'ul bo'lish, tadqiqot ishlari. Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishga oid umummilliy dasturda o'quvchilarni izlanuvchanlik, tadqiqotchilikka undashga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa evristik topshiriqlar o'quvchilarda tadqiqotchilikni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Evristik ta'lim – ta'lim oluvchilarning mustaqil, faol, ijodiy faoliyatini tashkil etishda foydalaniladigan evristik metodlarga asoslangan ta'lim. “Evristika” grekcha so'z bo'lib, “izlayman”, “topaman”, “ochdim” ma'nolarini ifodalaydi.

Umumiy o'rta ta'lim jarayonida o'quvchilar tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega bo'lish natijasida dastlab kichik tadqiqotlarni amalga oshiradilar. Mavjud pedagogik amaliyotni chuqur tahlil qilganimizda o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini

shakllantirishda evristik savol va topshiriqlardan etarlicha foydalanilmayotganligini aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

O'zbekiston Respublikasi davlati va jamiyatining umumiy o'rta ta'lim oldiga qo'ygan talablari O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" qarorlarida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularni mantiqiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashga o'rgatish, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish, bir so'z bilan aytganda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu vazifalarni echish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy yondashuvlarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda evristik yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Jumladan, evristik topshiriqlar o'quv jarayoni mahsuldorligini ta'minlashga xizmat qilish bilan bir qatorda o'quvchilarni tadqiqotchilikka yo'naltiradi. Evristik yondashuv asosida o'quvchilarda tadqiqotchilik, tashabbuskorlik, ijodkorlik mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Shunday qilib, evristik yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodikaning asosiy natijasi o'quvchining alohida topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishidagina emas, balki noma'lum vaziyatda mustaqil yo'l topishga odatlanishida namoyon bo'ladi. Bu esa zamonaviy ta'limning mantiqiy, tanqidiy, ijodiy va tadqiqotchilikka yo'naltirilgan maqsadlari bilan bevosita uyg'unlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi hujjatlari.

4. Педагогика: энциклопедия. III жилд. Жамоа. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017. – 421 б. 333-б.
5. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика: Теория и технология креативного обучения. – М.: МГУ, 2003. – 416 с.
6. Махмутов М.И. Проблемное обучение: основные вопросы теории. – М.: Педагогика, 1975.
7. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. – М.: Педагогика, 1981.